

XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA YONDASHUVLARI

Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna

Alfraganus University nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,
Moliya kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya

Maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etishning zamonaviy nazariy asoslari va amaliy modellari tahlil qilingan. Investitsiyaviy oqimlarni boshqarishda OLI modeli, raqobat ustunliklari konsepsiyasi va "uchayotgan g'ozlar" paradigmalarning qo'llanilishi asoslab berilgan. O'zbekiston tajribasi xalqaro nazariyalar bilan taqqoslanib, samarali strategiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, TTXI, iqtisodiy o'sish, OLI modeli, raqobat ustunligi, investitsion muhit, iqtisodiy strategiya, O'zbekiston.

Аннотация

В статье исследуются современные теоретические основы и прикладные модели привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику страны. Обоснована эффективность применения модели OLI, концепции конкурентных преимуществ и парадигмы «летающих гусей» в управлении инвестиционными потоками. Опыт Узбекистана сопоставляется с международными подходами и предлагаются действенные стратегии.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, экономический рост, модель OLI, конкурентные преимущества, инвестиционная среда, стратегия, Узбекистан.

Abstract

This article explores the modern theoretical foundations and practical models for attracting foreign direct investment (FDI) into a national economy. The study substantiates the application of the OLI model, competitive advantage theory, and the "flying geese" paradigm in managing investment flows. Uzbekistan's experience is analyzed in comparison with international frameworks, and effective strategic directions are proposed.

Keywords: foreign direct investment, FDI, economic growth, OLI model, competitive advantage, investment environment, strategy, Uzbekistan.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqobat keskinlashib borayotgan bir davrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb qilish milliy iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. TTXI sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni olib kirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu investitsiyalar orqali mahalliy korxonalar xorijiy tajriba, moliyaviy resurslar va menejment amaliyotlariga ega bo'ladi, bu esa ularning bozor talablari asosida rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Sanoatni diversifikatsiyalash, yangi investitsiya loyihalarini

yo'lga qo'yish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali mamlakatda investorlar uchun qulay muhit yaratilmoqda. Bu jarayonda xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma korxonalar sonining ortib borayotgani hamda ularning sanoatdagi ulushi kengayayotgani sezilarli natija bermoqda.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, TTXI oqimlarini tartibga solish, ularni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish va bu jarayonga ilmiy asoslangan yondashuvlar kiritish samaradorlikni sezilarli oshiradi. Shu sababli, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qo'llanilayotgan zamonaviy nazariyalar, modellar va mexanizmlarni o'rganish, ularni O'zbekiston iqtisodiy sharoitiga moslashtirish orqali amaliy natijalarni yanada mustahkamlash mumkin.

Mazkur tadqiqotda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha ilg'or nazariy konsepsiyalar, ularning amaliy tatbiqi, O'zbekiston tajribasi hamda iqtisodiyotda bu jarayonning tizimlashtirilgan yondashuvlari tahlil qilinadi. Bu orqali xorijiy sarmoyalarni jalb qilish bo'yicha samarali strategik yo'nalishlar asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasi ilmiy adabiyotlarda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida keng yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy kapital oqimlarini tartibga solish, ularni qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyoti bilan moslashtirish va strategik yo'nalishlarga yo'naltirish investitsiyalarning real sektor rivojiga ta'sirini sezilarli oshiradi [1].

Dunning tomonidan taklif etilgan OLI modeli (Ownership, Location, Internalization) xorijiy investitsiya qarorlarining asosiy determinantlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu yondashuv xorijiy investorlar uchun mulkchilik afzalliklari, geografik joylashuv va ichki tizimda faoliyat yuritish samaradorligi muhim omillar sifatida qaralayotganini ta'kidlaydi [1]. O'zbekistonning TTXI jalb etish strategiyasida aynan joylashuv va resurs salohiyati kabi omillar yetakchi rol o'ynamoqda [2].

Vernonning mahsulot hayotiylik sikli nazariyasida investitsiya oqimlari asosan mahsulotning bozordagi rivojlanish bosqichlariga bog'liq ravishda shakllanishi izohlanadi. Bu nazariya xorijiy investitsiyalar dastlab ishlab chiqarish va marketing faoliyatlarini o'z ichiga oladi, so'ngra esa ishlab chiqarishni to'liq ko'chirish bilan yakunlanadi [3]. O'zbekiston misolida, avtomobilsozlik va elektrotexnika sohalaridagi xorijiy loyihalar aynan shu modelga yaqinlashmoqda [4].

Transmilliy kompaniyalar faoliyatini tahlil qilgan Xaymer, Kindleberger va Grem nazariyalarida investitsiyalar asosan bozordagi nomukammalliklar, texnologik ustunliklar va monopoliyalashgan pozitsiyalar orqali asoslanadi [5]. Bu yondashuvlar xorijiy kapital kirib kelgan tarmoqlarda yetakchilikni qo'lga kiritish imkonini tahlil qiladi. Jumladan, "oligopoliya modeli" xorijiy sarmoyadorlar tomonidan bozor yetakchilarining strategik qarorlariga mos harakat qilish orqali investitsion ta'sirni kuchaytirishini ko'rsatadi [6].

Porter tomonidan ishlab chiqilgan "raqobat ustunliklari rombi" modeli investitsiyani jalb qiluvchi davlatning raqobat salohiyatiga tayanadi [7]. Bu model mamlakat ichidagi talab, ishlab chiqarish omillari, kompaniya strategiyasi va davlat

siyosati o‘zaro bog‘liqlikda TTXI oqimlarini belgilovchi omillar sifatida baholanadi. O‘zbekistonda bu yondashuv iqtisodiy tarmoqlarni klasterlash, eksport salohiyatini oshirish va texnologik transformatsiya orqali izchil tatbiq qilinmoqda [8].

Bundan tashqari, “uchayotgan g‘ozlar” paradigmasi (Akamatsu, Kojima, Ozawa) rivojlanayotgan mamlakatlarning ishlab chiqarish strukturasi va xalqaro savdoda bosqichma-bosqich ishtirokini tahlil qiladi. Ushbu model investitsiya oqimlarining fazoviy va vaqtli dinamikasini tavsiflashda qo‘llaniladi [9]. O‘zbekiston bu bosqichlarning ikkinchi va uchinchi fazasiga yaqin bo‘lib, investitsiyalarning nafaqat texnologik transfer, balki mahsulot eksporti orqali iqtisodiy o‘shish manbaiga aylanishi ta‘minlanmoqda [10].

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga doir nazariyalar ularning oqimlari, maqsadi va strategik yo‘nalishlarini tushunishga imkon beradi. Zamonaviy modellar investitsiyalarning tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti, texnologik tarkibi va milliy iqtisodiyotga qo‘shgan hissasini chuqur tahlil qilish uchun konseptual asos yaratadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha mavjud nazariyalar, modellar va konsepsiyalar tizimli tahlil qilindi. Analitik yondashuv asosida TTXI oqimlarini tartibga solishning zamonaviy mexanizmlari baholandi. Taqqoslash usuli yordamida xalqaro amaliyotdagi nazariy modellarning o‘ziga xosliklari va O‘zbekiston sharoitiga moslashuv darajasi aniqlashtirildi. Jadvaliy ko‘rinishda klassik va zamonaviy yondashuvlarning asosiy farqlari, ustunliklari va qo‘llanish imkoniyatlari tizimlashtirildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida investitsiya muhitining tarkibiy omillari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning ilmiy asoslari xorijiy manbalar, iqtisodiy nazariyalar va statistik tahlillarga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya (TTXI) ochiq va samarali xalqaro iqtisodiy tizimning ajralmas qismi va rivojlanishning muhim katalizatoridir. Iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy maqsadi mavjud mablag‘lardan, vaqt va imkoniyatlardan samarali foydalanishdir. Risk va resurs imkoniyatini hisobga olgan holda kapitalni samarali joylashtirish va sanoat salohiyatini oshirish, mamlakatning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag‘batlantirish, ayniqsa sanoat sohalariga jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir.

Ma‘lumki, TTXI asosan xorijiy kapital ishtirokida korxonalarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bu esa mamlakatda xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va qo‘shma korxonalarini barpo etish hamda ularning bozor faoliyatini rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishni ta‘minlash maqsadida Prezidentning bir qator farmonlari ham qabul qilingan. Jumladan, 2005-yil 11-aprelda qabul qilingan “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb

etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2012-yil 10-aprelda qabul qilingan "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari asosida xorijiy investorlarga bir qator imtiyozlar taqdim etilgan.

O'zbekistonda 2019-yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb e'lon qilindi. Ushbu yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni O'zbekistondagi imkoniyatlar va resurs salohiyati to'g'risida xabardor qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni yaxshilash bo'yicha bir qator qonuniy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300-son qarori bilan xorijiy investorlarga davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish tizimini shakllantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun tayyor investitsiya takliflarini ishlab chiqish, biznes forumlar o'tkazish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish kabi yangi yo'nalishlar belgilab berilgan.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarning jalb etishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) tizimlashtirilgan nazariya va modellari, tipologiyasi, tarkibiy tuzilishi, ularni jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqishning ilmiy metodologik asoslarini ishlab chiqishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shuningdek mahalliy tadqiqotchilar asosan TTXIni mintaqaviy rivojlanishga ta'sirini o'rganishgan. Sanoat korxonalari ayniqsa avtomobil sanoatiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmagan va asosiy e'tibor ichki investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Xalqaro kapital harakatini o'rganish iqtisodiyotda doimiy muammolardan biri sifatida qaraladi. Xorijiy kapital harakati bo'yicha ilk nazariyalar klassik iqtisodchilar bo'lgan Dj.Rikardo, S.Millemlar¹ tomonidan o'rganilgan. Neoklassik maktab namoyondalari hisoblangan A.Marshall² hamda B.Olinlarning³ hududlarning ishlab chiqarish omillariga talabning shakllanish nazariyalari asosida takomillashtirilgan. Xalqaro kapital harakatining zamonaviy nazariyalari S.Xaymer⁴, Ch.Kindleberger⁵ning "transmilliy kompaniyalar va sust raqobat"da, P.Danning "internatsionallashuv" nazariyalari xalqaro kompaniyalarning o'zaro kapital kiritish nazariyalari asosida takomillashtirilgan.

1

Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения / пер. с англ. М. Н. Смит // Рикардо Д. Сочинения. Т. 1. Москва: Государственное издательство политической литературы, 1955; Милл Д. С. Основы политической экономии. Т. 3. Москва: Прогресс, 1981. 448 с.

² Marshall A. The Pure Theory of Foreign Trade, the Pure Theory of Domestic Values. Augustus M Kelley Pubs, 1987. 72 s.

³ Ohlin B. G. Interregional and international trade. Harvard University Press, 1967. 324 s.

⁴ Hymer S. The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment: dis. ... kand. / Hymer S. Massachusetts Institute of Technology, 1960.

⁵ Kindleberger C. P. American Business Abroad: Six Lectures on Direct Investment. Yale University Press, 1969. 225 s.

R.Vernon¹ jahon bozorlarida faoliyat yuritayotgan hamda xorijiy mamlakatlarga o‘zining kapitalini kiritishga asosiy sabab bo‘luvchi omillar sifatida "xalqaro tovar ishlab chiqarish sikli"ni taklif qildi. Uning nazariyasiga ko‘ra xorijiy investitsiyalar oqimi bir davlatdan ikkinchi davlatga qachonki ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bir mamlakat doirasida talab pasayib borishi natijasi yuz berishi asoslangan.

M.Porter tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatda o‘zining raqobat afzalliklarini oshirishni birlamchi omil sifatida qaralishi, "to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va millatlarning raqobat ustunliklari" ya‘ni kompaniyalarning internatsionalizatsiyalashuvi modeli ilgari surilgan².

TTXI va xalqaro kooperatsiyalar bo‘yicha munosabatlarining tahlili eng jahon olimlari o‘rtasida mashhur nazariyalardan biri hisoblanadi. Jumladan, A.Kriena va K.Miyadjivalar³ tadqiqotlari TTXIlarning investorlar va investitsiya qilinayotgan korxonalar iste‘molchilariga foydalilik funksiyalariga asosiy e‘tibor qaratishadi. Mualliflar xalqaro kompaniyalarni TTXIlarning o‘shish shartlarini tahlil qildilar va ular tomonidan olingan asosiy yondashuv sifatida ichki iste‘molni oshirishi asoslangan.

Umuman olganda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni mamlakatga jalb etish bo‘yicha aniq metodologik asoslar ishlab chiqish uchun investorlarni jalb etishning bir qator zamonaviy usul va modellari jahon olimlari tomonidan yaratilgan. Shularni inobatga olingan holda xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etishning zamonaviy usul va mexanizmlari 1.2.1-jadvalda tizimlashtirilgan.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar nazariyasi g‘arb va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy transformatsiyaning tarixiy bosqichlari hamda milliy iqtisodiyot va jahon savdosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘siri bilan ahamiyatli. Xalqaro kapital oqimi bo‘yicha shakllangan nazariyalar va modellar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimlarini tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, milliy iqtisodiyot va tarmoqlarning raqobatbardoshligi sabablarini tushunishda asosiy muvaffaqiyat omillarini aniqlashga ham yordam beradi.

1.2.1-jadval

Xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etishning zamonaviy usul va mexanizmlari⁴

Nazariyalar	Mualliflar	Muammolar	Asosiy natijalar
Xalqaro tovar harakati davriyligi nazariyasi	Vernon R. (1966-y.)	TTXI va xalqaro savdo, tovarning hayotiylik davri	Konsepsiyaning xarakterli xususiyati — xalqaro iqtisodiyotning elementlar hisoblangan (xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillari va sanoat maqsadlari) marketing nazariyasi bilan (mahsulot hayotiylik davri) birlashtirilgan. Mahsulotning hayotiylik davri va ishlab chiqarish xarajatlarning o‘zgarishi korporatsiyaning rahbarlariga uch turdagi yechimlarni taklif qiladi: uy xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish, tashqi bozorga eksport qilish va tarqatish tizimini amalga oshirish

¹ Vernon R. International investment and international trade in the product cycle // Quarterly Journal of Economics. 1966. T. 80, № 2. S. 190—207.

² Porter M. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1998. 896 s.

³ Creane A., Miyagiwa K. Foreign direct investment and cost uncertainty: Correlation and learning effects: Working paper / Institute of Social; Economic Research, Osaka University. 2007. 28 s. № 0694.

⁴ Muallif ishlanmasi

Nazariyalar	Mualliflar	Muammolar	Asosiy natijalar
			<p>Mahsulotning hayot aylanish jarayoni uch asosiy bosqichdan iborat: innovatsiya, yetuklilik va standartlashtirish. Yangi mahsulotni joriy etishda innovatsion kompaniyalar NIOKR va marketing xarajatlarini qoplash uchun ichki bozorlarda innovatsion tovar uchun vaqtinchalik monopoliyadan foydalanadilar. Tovarning keyingi hayotiylik davrida esa kompaniya eksport imkoniyatlarini qidiradi. Standartlashtirish bosqichida kompaniyalar chet elga investisiya qilishadi va boshqa mamlakatlarda mahsulotni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishadi.</p>
Transmilliy kompaniyalar va nomukammal raqobat	Xaymer S. (1960-y.)	Transmilliy kompaniyalar raqobatbardoshligi va ularning xalqaro faoliyati	<p>Chet ellik investorlar tashqi bozorga kapital kiritish ularda milliy ishlab chiqarishni tashkil etishga nisbatan birmuncha og'ir, ko'p xarajat talab qiluvchi va yuqori darajada riskka tayanadilar.</p> <p>Kompaniyalar xorijiy mamlakatlardagi filiallari asosan masofaviy nazoratga olinadi va ularning marketing faoliyatini va rivojlanishida bir qator omillarning salbiy ta'siri kuzatiladi (til va madaniy omillar), ular esa yana qo'shimcha sarmoyalar talab qilinadi. Shunday qilib, muvaffaqiyatli faoliyat uchun bozorning nomukammalligi tufayli, xorijiy investor ushbu bozorda monopolistik ustunlikka ega bo'lishi talab etiladi.</p> <p>Xulosa qilganda, xorijiy investorlar uchun chet elga ishlab chiqarish investitsiyalarini kiritish ichki bozorda ishlab chiqarishni tashkil etishdan ko'ra ko'proq risklar va xarajatlarni keltirib chiqaradi. Ammo ular xorijiy bozorlardagi raqobatning nomukammalligi va sustligidan keng foydalanganligi uchun ham investitsion faoliyatni amalga oshiradilar</p>
	Kindlberger Ch. P. (1969-y.)		<p>Xaymerning nazariyasiga ko'ra transmilliy kompaniyalarning xorijiy bozorlarda samarali investitsiyalashning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatiladi:</p> <p>Firmaning tovar siyosati doirasidagi nomukammalliklar ya'ni, marketing texnikasi, brend, imij, tovar differentsiatsiyasi</p> <p>Ishlab chiqarish omillari bilan bog'liq nomutanosibliklar (ishlab chiqarishni to'g'ridan-to'g'ri nazorati, texnologiya, xodimlar malakasi, kapitalni bozorga joylashtirishdagi imtiyozlar)</p> <p>Iqtisodiyotning ichki va tashqi ko'lamidan foydalanish imkoniyatlari</p> <p>Mamlakatning siyosati va tashqi xavfsizligi</p>
Oligopoliya va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	Nikkerbekker F. T. (1973-y.)	Oligopolistik tizim va TTXI	<p>Uning 20 yil mobaynida 187 ta Amerika kompaniyalarining xalqaro faoliyatini o'rganish natijasi shuni ko'rsatdiki, oligopolistik tarmoqlarda milliy raqobatchilar beixtiyor bozor yetakchilari orqasidan ergashadilar. Bu ergashish strategiyasi 45 foiz holatda birinchi investitsiyalash vaqtidan boshlab 3 yil davomida kuzatilgan, 75 foiz holatda esa 7 yil davomida kuzatilgan.</p> <p>"Yetakchilarni ta'qib qilish" dastlabki sarmoyalar kiritilgan davrdan boshlab 45 foiz hollarda 3 yil mobaynida, 75 foizida esa 7 yil davomida kuzatilgan.</p> <p>Ushbu model bozor ishtirokchilarining investitsion loyihalarini emas balki, bozorga kirgan korporatsiyalarni tanlash uchun foydalanilishi mumkin.</p>

Nazariyalar	Mualliflar	Muammolar	Asosiy natijalar
			Ushbu model energiya va metallurgiya kabi yuqori konsentratsiyali tarmoqlar uchun mos kelmaydi, asosan bozor yetakchilari tomonidan boshqa mamlakatga asosan oddiy tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqligini asoslaydi.
	Grem X. (1978-y.)		<p>Oligopoliya va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritishning AQSH va Yevropa transmilliy kompaniyalari faoliyatini baholash asosida takomillashtirdi. Ushbu TMKlarning maqsadi AQSHdagi Yevropa investorlarini emas, balki Yevropadagi Amerika kompaniyalari strategiyalariga qarshi turishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Ya'ni korporatsiyalarning maqsadi AQSHdagi o'zlarining yevropalik raqobatchilari bilan kurashish emas, balki Amerika kompaniyalari strategiyalariga qarshilik ko'rsatish bo'lgan.</p> <p>Yevropaliklar ichki bozorga "Amerika tahdidi" ni his eta boshladilar. Shunday qilib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar har doim ham iqtisodiy daromadning ko'paytirishga asoslanganligi bilan belgilanmaydi — hech bo'lmaganda dastlabki bosqichda emas, balki asosan uning asosiy raqiblarini mahalliy va chet elda to'xtatishga qaratilgan qarshi choralar sifatida qaralishi mumkinligi xulosa qilindi.</p>
Internalizatsiya nazariyasi	P.Bakli va M.Kasson (1976-y.)	Integratsiya va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muammolari	Internalizatsiya (ing.tilida internalization – kompaniya ichida barcha texnologiya va nou-xaularning birlashishi) nazariyasi transmilliy kompaniyalar rivojlanishi va ularning TTXIning amalga oshirish motivlarini o'rganadi. Bu nazariyaga ko'ra kompaniyalar yaxlit ichki tuzilmaga ega bo'lgan sharoitda o'z faoliyatlarini kengaytirish oladilar. Shuningdek, ushbu nazariyada undan oldingi nazariyalar (xususan, Xaymer, Kindlberger) asosiy e'tiborni ishlab chiqarish funksiyasiga qaratganligi va biznesni xalqaro tashkillashtirish, marketing va boshqaruv resurslari, moliyaviy menejment, yetakchilik qobiliyati, inson resurslarini rivojlantirish kabi boshqa muhim afzalliklar e'tibordan chetda qolganligi ta'kidlanadi ¹
“Uchayotgan g'ozlar” paradigma	K.Akamatsu (1938-y.)	Iqtisodiy rivojlanish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'zaro ta'siri baholangan	Bu iqtisodiy rivojlanishning umumlashgan nazariyasi bo'lib, unga ko'ra tarmoq rivojlanishining uchta bosqichi mavjud. Birinchi bosqichda iqtisodiyotga mahsulotlar xorijiy ishlab chiqaruvchilardan import orqali kirib keladi. Ikkinchi bosqichda esa o'sib borayotgan milliy talabni qondirish uchun yangi mahalliy ishlab chiqarish yuzaga keladi. Uchinchi bosqichda ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulot yangi chet el bozorlariga eksport qilinadi. Bu nazariya Yaponiyadagi tekstil sanoatini kuzatish asosida shakllantirilgan. Import, mahalliy ishlab chiqarish va eksportning ketma-ketlik grafik ko'rinishida paydo bo'lishi yovvoyi g'ozlar galasining shakllanishiga o'xshaydi. Bunday modellar tekstil sanoati (ip-gazlama ishlab chiqarish), kechroq sanoat jihozlari tarmog'ida (yigiruv mashinalari) kuzatilgan

¹ B. Valiyev. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi va ularga oid asosiy nazariyalarning kelib chiqishi. <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/20328-tgridan-togri-xorijiy-ivstitsiyalarning-tasniflanishi-va-ularga-oid-asosiy-nazariyalarning-klib-chiqishi>

Nazariyalar	Mualliflar	Muammolar	Asosiy natijalar
	Kodjima K. (1978 g.) Ozzava T. (1985 g.)		<p>Akamatsuning "uchayotgan g'ozlar" paradigmasi ta'qib qilinadigan iqtisodiyotning rivojlanishini tushuntirishdir. E'tiborli davlatlar o'z iqtisodlarini yetakchilar bilan raqobatda rivojlantirishga intiladi. Kojima va Ozava ushbu nazariyani to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar omilini qo'shish orqali to'ldirdi va xorijiy TMKlarning texnologik va moliyaviy yordami rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyotni qanday oshirishi mumkinligini ko'rsatdi. Shuningdek, savdo to'siqlarini bartaraf etish va korporatsiyalarni o'z texnologiyalari va nou-xaularini ko'chirishga undaydigan shart-sharoitlarni ta'minlash ta'qibni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatdi.</p> <p>Bunga dalil sifatida yapon kompaniyalari ishlab chiqarish va boshqaruvni Osiyo bozorlariga ko'chirayotganda keltirildi. Yaponiya sarmoyasi Tailandda avtomobilsozlik va to'qimachilik sanoati, Malayziya va Gonkongda maishiy texnika sektori va Tayvanda mikrokompyuter sanoati kabi ko'plab raqobatbardosh tarmoqlarni yaratishga olib kelgani bilan izohlanadi.</p>
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va millatlarning raqobat ustunliklari nazariyasi	M.Porter (1990-y.)		<p>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya qabul qiluvchi mamlakatlar raqobatbardoshligini tahlil qilib TTXI va raqobatdoshlik o'rtasidagi bog'lanishni o'rgandi. M.Porter tadqiqotlari asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarning eksportida asosiy o'rin egallovchi yuzdan ortiq tarmoqlar raqobatdoshligini "raqobat afzalliklari rombi" asosida tadqiq qildi. Uning tadqiqotlari natijalari transmilliy kompaniyalar va sherik mamlakatlarning raqobat ustunliklari o'rtasidagi dinamik ta'sirlashuv xususiyatlarni esa raqobat afzalliklarining 5 kuchini ko'rsatadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) Korporativ strategiya, tuzilma va raqobatbardoshlik; 2) Omilli shartlar, ya'ni ishlab chiqarish omillari, tadbirkorlik, bilim va umumiy infratuzilma; 3) Mamlakatdagi talab holati, uning rivojlantirish tendensiyasi va ichki raqobat, ichki talab dinamikasi va boshqa omillar; 4) Tarmoqni qo'llab quvvatlovchi omillar; 5) Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va tarmoqlarni qo'llab quvvatlash siyosati
OLI (mulchilikka, joylashuvga va internatsiallashtirish xos afzalliklar) modeli	Danning D. (1981-y.)	Determinantny PII	<p>Ushbu nazariya xorijiy sarmoyadorlar uchun mavjud bo'lgan afzalliklarga qarab, barcha turdagi integratsiyalashni nazarda tutadi.</p> <p>Transmilliy kompaniyalarning investitsiya aktivlari quyidagi uchta yo'nalishda shakllanadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) Xorijiy investorlar uchun raqobat afzalliklari to'plami va tabiati (Mulchilikka xos afzalliklari, O – ustunliklar) 2) Bozorlar va ichki omillar to'plami va tabiati (Joylashuvga xos avfzalliklar, L – avfzalliklar) 3) Internatsiallashtirish darajasini maksimalashtirish imkoniyatlari (Internatsiallashtirish xos afzalliklar, I – afzalliklar). <p>Ushbu paradigma shuni ko'rsatadiki faqat xududiy internatsiallashtirish nazariyasi bilan birga manfaatli munosabatlardir</p>

Nazariyalar	Mualliflar	Muammolar	Asosiy natijalar
Mamlakatlarning investitsion rivojlanishi (IDP)	Danning D. (1981-y.) Narula R. (1994-y.)	Mamlakatlarni investitsion rivojlanishiga ko'ra tasniflash	<p>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakatning eksport va importi hamda ularning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq.</p> <p>IDP paradigmasiga ko'ra, mamlakatlar beshta asosiy rivojlanish bosqichidan o'tadi.</p> <p>Birinchi rivojlanish bosqichida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kichik darajada import, kichik hajmda eksport qilib, mahalliy korxonalar raqobatbardoshligi past bo'ladi.</p> <p>Ikkinchi darajada TTXI kiritish xajmi oshadi, shuningdek TTXIni chaqirish boshlanadi, korxonalar raqobatda afzalliklarga erisha boshlaydi.</p> <p>Uchinchi bosqichda TTXIni kirib kelishi rivojlana boradi va eksport tez suratlarda oshishi kuzatiladi, bu holatda mamlakatlarning aholi jon boshiga daromadlarining o'sishida kuzatiladi.</p> <p>To'rtinchi bosqichda TTXI eksportini rivojlantiradi, ichki tarmoqlar raqobatbardoshligi ta'minlanadi, ichki va jahon bozorlarida raqobatbardoshlikni ta'minlanishiga erishiladi va mamlakatning bir qator sohalarda jahon yetakchiligini qo'lga kiritadi.</p> <p>Beshinchi bosqichda TTXIlar mamlakat eksporti va importini oshirishni ta'minlaydi, transmilliy kompaniyalar rivojlanadi, ijtimoiy iqtisodiy samaradorlikka erishiladi va aholi jon boshiga daromadlar oshib, ixtisoslashgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat tarmoqlari yuzaga keladi.</p>

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili ekanligini isbotladi. TTXI orqali texnologik yangilanishlar amalga oshadi, ishlab chiqarish samaradorligi ortadi va sanoat tarmoqlarining xalqaro raqobatbardoshligi mustahkamlanadi. O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun mustahkam huquqiy va institutsional asos yaratmoqda.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, TTXI oqimlarini tartibga solishda OLI modeli, "raqobat ustunliklari" konsepsiyasi va "uchayotgan g'ozlar" paradigmasi kabi nazariy yondashuvlar samarali qo'llanishi mumkin. Ayniqsa, resurs salohiyati, logistika imkoniyatlari va tashqi bozorga chiqishdagi afzalliklar asosida sektorlar kesimida ustuvor yo'nalishlar aniqlanishi lozim.

Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Sanoat tarmoqlari uchun moslashtirilgan TTXI strategiyasini ishlab chiqish — texnologik jihatdan ustuvor sohalarga xorijiy sarmoyalarni yo'naltirish orqali sanoat klasterlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

2. Investitsiya loyihalarining ochiqligi va soddaligini ta'minlash — xorijiy investorlar uchun tayyor hujjatlar va iqtisodiy hisob-kitoblar bilan jihozlangan loyiha portfellarini shakllantirish lozim.

3. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida yangi mexanizmlarni rivojlantirish — strategik tarmoqlarda DXSh asosida infratuzilma va ishlab chiqarishga sarmoya jalb qilish samaradorlikni oshiradi.

4. Texnologik transferga ustuvorlik berish — xorijiy sarmoyadorlar bilan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlikni rag'batlantirish zarur.

5. Xavflarni boshqarish va investorlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish — huquqiy kafolatlar, soliq imtiyozlari va shaffof boshqaruv asosida ishonchli investitsion muhit yaratilishi lozim.

Umuman olganda, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar va O‘zbekistonning amaliy tajribasi asosida ishlab chiqilgan strategiyalar uzoq muddatli barqaror o‘shish va xalqaro integratsiyaning poydevori sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dunning, J. H. (1981). *International Production and the Multinational Enterprise*. London: Allen & Unwin.
2. Hymer, S. (1960). *The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment*. PhD dissertation, MIT.
3. Vernon, R. (1966). International investment and international trade in the product cycle. *The Quarterly Journal of Economics*, 80(2), 190–207. <https://doi.org/10.2307/1880689>
4. Kojima, K. (1978). *Direct Foreign Investment: A Japanese Model of Multinational Business Operations*. London: Croom Helm.
5. Kindleberger, C. P. (1969). *American Business Abroad: Six Lectures on Direct Investment*. New Haven: Yale University Press.
6. Knickerbocker, F. T. (1973). *Oligopolistic Reaction and Multinational Enterprise*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.
8. Buckley, P. J., & Casson, M. (1976). *The Future of the Multinational Enterprise*. London: Macmillan.
9. Akamatsu, K. (1962). A historical pattern of economic growth in developing countries. *The Developing Economies*, 1(1), 3–25. <https://doi.org/10.1111/j.1746-1049.1962.tb00111.x>
10. Narula, R., & Dunning, J. H. (2000). Industrial development, globalization and multinational enterprises: New realities for developing countries. *Oxford Development Studies*, 28(2), 141–167. <https://doi.org/10.1080/713688313>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**